

## **XI-XII ASRLARDA QURILGAN SO'FILAR MANZILGOHI – NAZLIMXON SULUV YODGORLIGI**

Xujaniyazov Doston Maratovich

Taxiatosh tumani 16-sonli umumlatim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Telefon nomer: 913072776

Gmail adress: dostonxujaniyazov@gmail.com

### **Annotatsiya:**

Ushbu tezisda Markaziy Osiyoning o'rta asrlardagi Amudaryo qirg'og'ida sivilizatsiya markazi sifatida qad rastlagan qadimiy memoriy yodgorlik – Nazlimxon suluv estaligi, uning nomlanish toponimlari va tarixi ustida ma'lum manbalarga suyanib, tarixiy ketma ketlikda tatqiqod olib bordik. Nazlimxon suluv yodgorligi XII asr oxiri XIII asr boshlarida yer betiga qurilgan saroy emas, balki, XI-XII asrlarda qurilgan so'filar manzilgohi ya'ni xonaqoh. Tadqiqot davomida professor A.Yu.Yakubovskiy, o'rta asrlardagi arxitektura badiiy hunarmandchiligi tarixi bo'yicha atoqli mutaxassis G.A.Pugachenkova, V.N.Yagodin, Misdakhkon kompleksida qazish ishlari olib borgan mahalliy arxeolog G'.Xo'janiyazov, arxeolog olim V.I.Filimonov, X.Yusupov va etnograf olim X. Esbergenovlarning ilmiy xulosalari o'rganildi.



**Kalit so`zlar:** tarix, arxeologiya, sivilizatsiya, toponim, Xo'jayli, Nazlimxon suluv, Misdakhan, mavzoley, xonaqoh.

### **Annotation:**

In this thesis, based on known sources, we conducted historical research on the Nazlim Khan suluv monument an ancient monument that stood as a center of civilization on the Amudarya coast of Central Asia in the middle ages, its toponyms and history. The monument of Nazlim Khan Suluv is not a palace built on the ground at the end of the 12th century at the beginning of the 13th century, but a residence of Sufis built in the 11th-12th centuries. During the research, professor A.Yu.Yakubovsky, famous specialist in the history of medieval architectural art crafts G.A.Pugachenkova, V.N.Yagodin, local archaeologist G.Khojaniyazov who conducted excavations in the Misdakhkon complex, archeologist V.I. Filimonov, Kh.Yusupov and ethnographer The scientific conclusions of H. Esbergenov were studied.

**Keywords:** Key words: history, archeology, civilization, toponym, Khojaly, Nazlimkhan suluv, Misdakhan, mausoleum, house.

Ma'lumki, Xo'jayli shahridagi Mazlumxon suluv yoki Nazlimxon suluv esdaligi haqida xalq orasida har xil rivoyat va afsonalar bor. Bu haqida olimlarimiz ham har xil fikrlar bildirib o'tgan. Inshootning qanday vazifani bajarganligi va hatto qanday atalishi haqida ham argumentlar bor. "Nazlimxon suluv Markaziy Osiyoning o'rta asrlardagi Ismoil Samoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Muhammed Takash, Sanjar, To'rabekxonim Gori Amir, Bibixonim singari durdona arxitekturaviy qurilishlari qatorida turadigan xalqimizning bebaho esdaligi"<sup>1</sup>

Nazlimxon suluv saroy emas balki, so'filar manzilgohi. Nazlimxon suluv inshooti haqida turli xil fikrlarning bo'lishi tabiiy hol. Chunki bu joyda har mamlakat arxeologlari har xil vaqtda izlanish olib borganlar. Yana bir manba esa xalq og'zaki ijodi hisoblangan afsona va rivoyatlar. Xalq rivoyatlariga ko'ra qadimda bir xon bo'lganligi va o'zining qiziga mos kuyov topish uchun shart qo'yanligi, kim shartni bajarsa o'sha kuyov bo'lishi aytiladi. Yigitlardan biri shartni bajargan lekin yigit va qiz birga bo'la olishmaganligi haqida fikr xalq orasida keng tarqalgan. Bu haqida filmlar ham suratga olingan.

Endi esa ilmiy jihatdan tadqiqot olib borgan odamlarning fikrga kelsak "Professor A.Yu.Yakubovskiy "qiz uyi" deb atalgan bu esdalik XIII asr oxiri XIV asrlarga tegishli yer osti mavzoleyi"<sup>2</sup> degan birinchi ilmiy gipotezani ilgari surdi.

O'tgan asrning saksoninchi yillarning boshida bu ilmiy masalaga O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlardagi arxitektura badiiy hunarmandchiligi tarixi bo'yicha atoqli mutaxassis G.A.Pugachenkova ham aralashdi. U o'zining maqolasida A.Yu.Yakubovskiy va V.N.Yagodinlarning fikrini qo'llab "Nazlimxon suluv XIV asrda tiklangan mavzoley"<sup>3</sup> degan to'xtamga keladi. 1987-1991-yillarda Misdaxkon kompleksida qazish ishlari olib borgan arxeolog G'.Xo'janiyazov "bizning fikrimizcha XII-XIII asrlarda xonaqoh sifatida qurilgan, so'ng XIV asrga kelganda uning markaziy xonasiga murda dafn etilib maqbaraga aylantirilgan"<sup>4</sup> deb aytib o'tgan.

Biroq 1959-yil bu estalikni qayta tiklashga bog'liq olib borilgan arxeologik ishlarning natijasida toshkentlik arxeolog olim V.I.Filimonov "Mazlumxon suluv XIII-XIV asrlarda yer ostiga solingan mavzoley emas, balki XII asr oxiri XIII asr

<sup>1</sup> Xo'janiyazov G'. Xakimniyazov J – "Qaraqalpag'istandin' ajayip jeti esdeligi" N. 2004. 38-bet

<sup>2</sup> Daniyar Belosarov – "Xojeli". Nokis 2011. 30-bet.

<sup>3</sup> Pugachenkova G. A. – "И всё таки-Мавзолей" Строительство и архитектура Узбекистана. №12. 1975

<sup>4</sup> Xo'janiyazov G', O.J.Yusupov – "Qaraqalpag'istandag'I muxaddes o'rinalar" N.1994. 20-bet.



boshlarida ya’ni Chingizxon bosqiniga qadar yer betiga qurilgan saroy”<sup>5</sup> degan fikrga keladi.

Yana bir toshkentlik olim va arxitektor X.Yusupov “Nazlimxon suluv Mavzoley emas, saroy” degan maqola yozadi. Demak oppozitsiya taraf Nazlimxon suluvning maqbara emas saroy ekanligi haqidagi fikrni qo’llab chiqadi.

Taniqli etnograf olim X. Esbergenov esa “bu qurilishini XIII-XIV asrlarda – Oltin O’nda davrida qurildi deb qabul qilish qiyin, u XI-XII asrlarda qurilgan va XX asrning boshlarigacha zikir solish orqali betoblarni davolagan darveshlar xizmat qiladigan o’rin”<sup>6</sup> deb hisoblaydi.

Bu fikrni G’ayraddin Xo’janiyazov va Jo’lmurza Xakimniyazov ham beradi. “1987-yildan olib borilgan Mizdakxon arxeologik ekspeditsiyasi besh yildan ortiq vaqt davomida olib borgan izlanishlari uning oldin ilmga nomalum taraflarni ochib berdi. Bu yerda yozgi va qishgi juma masjid, xonaqoh ya’ni qalandarxona va mavzoleylar ochildi. Ayniqsa yangidan ochilgan XII-XIV asrlarga tegishli Sulaymon Haddodi xonaqohi “qiz uyining” sir sandig’ini tushunishga kalit vazifasini bajardi.”<sup>7</sup>

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: Nazlimxon suluv yodgorligi XII asr oxiri XIII asr boshlarida yer betiga qurilgan saroy emas, balki, XI-XII asrlarda qurilgan so’filar manzilgohi ya’ni xonaqoh. Sababi uning qurilish jihatdan Sulaymon Haddodi xonaqohi bilan bog’liqligi ularning bir xil vazifa bajarganligi haqida xulosa beradi.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Xo’janiyazov G’. Xakimniyazov J – “Qaraqalpag’istandin’ ajayip jeti esdeligi” N. 2004. 38-bet
2. Daniyar Belosarov – “Xojeli”. Nokis 2011. 30-bet.
3. Pugachenkova G. A. – “И всё таки-Мавзолей” Строительство и архитектура Узбекистана. №12. 1975
4. Xo’janiyazov G’, O.J.Yusupov – “Qaraqalpag’istandag’I muxaddes o’rinlar” N.1994. 20-bet.
5. Есбергенов X – “Номогыльные камни из кетен кала и Назлумхан сулу с надписями Музалитского толка. Вестник.1976.

<sup>5</sup> Daniyar Belosarov – “Xojeli”. Nokis 2011. 30-bet.

<sup>6</sup> Есбергенов X – “Номогыльные камни из кетен кала и Назлумхан сулу с надписями Музалитского толка. Вестник.1976

<sup>7</sup> Xo’janiyazov G’. Xakimniyazov J – “Qaraqalpag’istandin’ ajayip jeti esdeligi” N. 2004. 43-bet